



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'ZBEK TILIDA QO'RQUV KONSEPTINI IFODOLOVCHI NOMINATIV BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI

Kamaraddin Davletov
Urganch davlat universiteti doktranti
k.k.davletov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179342>

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilidagi "qo'rquv" konsepti leksik-semantik maydoniga kiruvchi leksik birliklar tanlab olinib, semantik-komponent tahlil metodi asosida turli guruhlarga ajratilib tasniflanadi. Tanalangan leksemalar semalariga ko'ra kichik sinonim guruhlarga ajratildi va semantik beligilari asosida jadvalga solib sharhlandi. Qo'rquv konseptiga kiruvchi otlar turli darajadagi umumiylikdagi semantik komponentlar bilan murakkab semantik tuzilishga ega. Ba'zi hollarda, qo'rquv konsepti birliklari va boshqa hissiyotlarni anglatuvchi birliklar o'rtasida bog'liqlik namoyon bo'ladi. Boshqa vaziyatlarda esa qo'rquv konsepti otlari izolyatsiya qilinishi va umumlashtirilishini kuzatish mumkin. Bu holatlar asosida ma'no jihatdan yaqin bo'lgan qator so'zlar sinonimik kichik guruhlarga bo'linadi va alohida birliklarning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: qo'rquv konsepti, semantik maydon, leksik birliklar, sinonimik qator, komponentlar tahlili, ma'no darajalari.

Kirish. Bugungi kunda turli madaniyat vakillarining muloqot jarayonida boshdan kechiradigan tuyg'ulari, hissiyotlari, ularni qo'zg'atuvchi omillar va ularning nutqda ifodalanishi muhim ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Shuning uchun boshqa fanlar qatorida lingvokulturologiyada ham, emotsional konseptlar va ularning tilda aks etishiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, o'zbek tilidagi qo'rquv konseptini tadqiq qilish va tasniflashda ham eng maqbul yo'llardan biri, uning darajalarini ifodalovchi leksik vositalarni semantic tahlil qilishdir. Modomiki konsept mental birlik hisoblanar ekan, u lisonda so'z, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, maqollar va metaforik o'xshatishlarda ifodalanadi.

Asosiy qism. Qo'rquv konsepti sinonimik qatorini tashkil etuvchi otlarning definitsion-komponentli tahlilini o'tkazamiz. O'zbek tili lug'atalrida quyidagi jadvalda berilgan leksemalar uchraydi:

1 - jadval

Qo'rqinch	Qo'rquv	Sarosima	Hadik	Tashvish	Haybat
Vahima	Dahshat	Tahluka	Xavotir	Dovdirash	Hayiqish
Vahshat	Vasvasa	Talvasa	Xavf		

I - **Qo'rquv** dominant leksemasi bilan - haqiqiy xavf yoki hayoliy tasavvur qilingan qo'rquv tuyg'usi tufayli yuzaga kelgan;



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

II - *Sarosima* dominant leksemasi bilan - bo'rttirib qabul qilinadigan yoki qarshilik ko'rsatib bo'lmaydigan, kutilmagan xavf oldida paydo bo'ladigan tuyg'uni ko'rsatadi;

III - *Hadik* dominant leksemasi bilan – ehtimoliy kutilgan, taxmin qilingan xavfni ko'rsatadi;

IV - *Tashvish* dominant leksemasi bilan - xavf haqida o'ylash va noaniqlik elementlari bilan tavsiflangan tuyg'uni bildiradi.

Qo'rquv konseptining to'rtta sinonim guruhining asosiy semalari quyidagi jadvalda keltirilgan. Biroq shuni hisobga olish kerakki, tahlil qilinayotgan konsept kontinuumni ifodalaydi, unda barcha birliklar qat'iy reytingga bo'ysunmaydi, shuning uchun ba'zi hollarda leksemalar xususiyatning mavjudligi yoki yo'qligi bilan emas, balki ega bo'lish qobiliyatining katta yoki kichikligiga qarab beriladi. Shunday qilib, jadvalda ma'lum bir guruhning berilgan xususiyatga egalik + (plyus) belgisi bilan, xususiyat yo'qligi – (minus) belgisi bilan ko'rsatilgan, 1 va 2 raqamlari mos ravishda qo'rquv darajasining kuchini ko'rsatadi.

2 - jadval

Semalar Dominantlarsin . guruhlar	Barch titik jonzotga xos	Faqat insonga xos	Xavf yaqinligida	Xavf uzoqligi	Uzoq muddatli	Qisqa muddatli	Yuqori intensivlik	Past intensivlik	Fikrlash qobiliyatini yo' qotish bilan birga keladi	Mulohaza yuritish qobiliyatining mavjudligi yo' qolishi
I. <i>Qo'rquv</i>									9 +	10 +
II. <i>Sarosima</i>									2	-
III. <i>Hadik</i>									-	2
IV. <i>Xavotir</i>									-	1

Xususiyatlarining o'xshashligiga ko'ra sinonimik kichik to'plamlar quyidagicha guruhlanadi: *qo'rquv* - *sarosima* – *hadik* - *xavotir*. *Sarosima* leksemasida qo'rquvning eng yuqori darajasi aks etadi va deyarli barcha xususiyatlar unda mavjud. *Qo'rquv* leksemasi esa neytral, *hadik* va *xavotir* guruhining bir qator xususiyatlarini takrorlaydi, lekin zaiflashgan shaklda. Dominant *qo'rquv* oti



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

joylashgan guruh ko'p xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur konseptni eng to'liq, umumiy tarzda ifodalaydi, shuning uchun *qo'rquv* konsepti sinonimik qatorining semantik markazini egallaydi.

Qo'rquv nominantlari qo'rquv hissiyotining kuzatori ko'rsatilmasdan qo'llanilishi keng uchraydi. *Xavotir, xadik, sarosima, talvasa vasvasa vahima, xadik*, kabi leksemalarini 1 – guruhga kiritishimiz mumkin. Ikkinchi guruhga esa tashqi ko'rinishi bilan kimdadir qo'rquv hissiyotini tug'diradigan, kuchli qo'rquv hissini uyg'otadigan kabi semalar jamlangan *haybat, xavf, dahshat, vahshat* kabi leksemalarni kiritamiz.

Yuqorida ko'rsatilgan semantik belgilari bilan birga, unikal (bir xil) belgilari ham mavjud bo'lib, ular tahlil qiladigan konseptning fransuz va o'zbek madaniyatga xosligini tasvirlaydi. Agar invariant semantik belgilari ilgari aniqlangan bo'lsa, barcha sinonimlar qatorini sxematik ma'nolarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Xavotir = qo'rquv + shubha, ishonchsizlik + doimiylik;

Vahima = qo'rquv + kuchli talvasa;

Hadik = qo'rquv + kutilganlik, qisqa muddatlilik;

Dahshat = qo'rquv + hayrat, ruhiy azob;

Sarosima = qo'rquv + beixtiyorlik, nazoratsizlik + ko'p odamlarni qamrab oladi;

Vahshat = qo'rquv + haraktsizlik + hayrat + nafrat.

Qo'rquv hissiyoti quyidagi his-tuyg'ular bilan birga yuz berishi mumkin: "o'ziga ishonmaslik", "shubha" (*xavotir*), "nafrat" (*vahshat, dahshat*), "hadik/xavotir" (*sarosima, vasvasa*). Agar qo'rquv "haraktsizlik" + yoki "hayrat" bilan birga yuz bersa, bu holat *vahshat* leksemasi bilan tasvirlanadi.

Qo'rquv turli his-tuyg'ular va holatlar bilan birga yuz berishi mumkin, shu jumladan hayrat /taassuf bilan ham. Ushbu konsept leksik vositalari tahlili shuni ko'rsatadi, bu hayratlanish "nafratlanish" bilan yuzaga keladi. Davriy ravishda yuzaga keladigan va doimiy xislatga aylanayotgan qo'rquv hissiyoti *vasvasa* leksemasi bilan ifodalanadi.

Endi qo'rquv konsepti sinonimlar qatorini leksik-semantik xususiyatlari gradual paradigmasini ko'rib chiqishga, ularni sistematik guruhlashtirib, umumiy va farqlovchi komponentlarini aniqlashga urinamiz. Lingvistikada leksik mikrosistemalarni tashkil etishda gradasiya rolini o'rganish, turli xil gradual paradigmalarni tasniflash bo'yicha boy tajriba mavjud. Bunda binar va nobinar (ko'p a'zoli) so'zlarni ajratishimiz mumkin. Binarlarga asosan antonimik munosabatlarga kirshadigan leksemalar, nobinar leksemalarga esa unikal semalarga ega bo'lganlarini



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kiritamiz. Ushbu tasnifda xarakterli bo'lgan ikki a'zo mavjud bo'lib, ular qo'rquv darajasining eng past va yuqori chekkasini (minimal va maksimal) ifoda etadi, qolgan barcha birliklar ular orasida ma'lum tartibda joylashgan.


Gradual paradigmaning tuzilishda biz aniqlangan semantik xususiyatlar asosida shkala tuzamiz. Bu yerdan ikki muhim xususiyat kelib chiqadi: a) zanjirli tuzilish, bu shkala asosiga olingan belgining bosqichma-bosqich oshishi yoki kamayishi e'tiborga olinishini anglatadi va b) muayyan unikal xususiyat, bu esa sinonimlar gradasiyasi (bizning holatda) bir xususiyat negizida amalga oshirilishini anglatadi.

Qo'rquv gradual paradigmasini tuzish uchun shkalaga asos qilib olinishi mumkin bo'lgan belgini aniqlash kerak, keyin esa, qaysi so'zlar eng pastki va eng yuqori chekkada turishini aniqlashimiz kerak. Gradual shkalani qilishda hissiyot intensivligini asos qilib olamiz:




Ushbu shkalada xavotir so'zi qo'rquvning eng kichik darajasini ifodalaydi, vahshat esa eng yuqori darajani ifodalaydi, va qo'rquv so'zi esa qo'rquvni tajriba qilishning o'rta darajasini ifodalaydi.

Agar gradual shkala asosiga «nazorat qiluvchanlik» belgisi olinsa, quyidagi natija hosil bo'ladi:



Ushbu shkalada xavotir va xadik so'zlari maksimal nazorat qilinadigan hisni ifodalaydi, ular odam tomonidan anglanadi va boshqariladi. Barcha + belgisi bor so'zlar esa shu darajada kuchli hissiyot yoki holatni belgilaydi-ki odam uchun nazoratsiz bo'lib, voqelikni his qilish va vaziyatga muvofiq qarorlar qabul qilish qobiliyatidan mahrum qilishi ehtimoli bo'ladi. Ushbu belgilar to'liq holda sarosima so'zida ifodalangan bo'lib, uning tarkibida "nazoratsizlik" semasi mavjud.

«Hisni uzoq davom etishi» belgisiga ko'ra barcha qo'rquv nominantlari shkalada quyidagicha joylashadi:



Shkalaning chekka a'zolari xadik (eng qisqa hissiyotni ifodalaydi) va vahshat (uzoq davom etuvchi hissiyotni ifodalaydi) so'zlari bilan ifodalangan. Intensivlik darajasi nisbatan past bo'lgan qo'rquv xavotirga juda yaqin bo'lib, faqatgina qisqa



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

muddatli hissiyotni emas, balki juda uzoq davom etuvchi tuyg'uni ham ifodalashi mumkin.

Qo'rquvning sinonimlari boshqa belgilariga ko'ra ham gradasiya qilinishi mumkin, ammo bu holda ular binar guruhlar ko'rinishida bo'ladi, ya'ni belgining borligi/yo'qligi prinsipi bo'yicha tashkil etilgan bo'lib, zanjirli tuzilishga ega emas. Masalan, "nafratlanish" semasining mavjudligi/yo'qligi prinsipi bo'yicha sinonimlar quyidagicha bo'linadi:

qo'rquv, xadik, sarosima, xavotir \Rightarrow **vahima, haybat, dahshat, vahshat**

Tadqiqotimizning keyingi bosqichi fransuz tilidagi *peur* konseptiga kiruvchi nominantlar sinonimik qatorini tashkil etuvchi leksemalarning semantik belgilari aniqlash bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Apresyan Y. Leksicheskaya semantika sinonimicheskie sredstva yazika. -Moskva: Nauka, 1974.
2. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1985
3. Hojiev A. O'zbek tilining sinonimlar lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1974.
4. Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Andijon: ADU, 2012.
5. Muhamedova S.X. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari. Filol. fan. dokt. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2007.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati: - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-680 b.
7. Qo'chqortoev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. – Toshkent: Fan, 1977. – B.21-24.
8. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 1992. –B.173-147r.
9. Rahmatullaev Sh. Semema– mustaqil til birligi//O'TA, 1984. №5. –B.18; Rahmatullaev Sh., Yunusov R. Sememalarning semalar sostavi va semantik bog'lanish haqida//O'TA, 1974. № 1; Tursunov U., Muxtorov J.,
10. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. -Jizzax: Sangzor, 2006.
11. Tojimatov X. Sifat sememalarining reallashuvida kontekst. Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2007.